

SAN'AT TA'SIRIDA TA'LIM OLUVCHILARNI SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISH

Z.A.Kadirova ¹

¹ Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali 2-kurs magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:05.02.2025

Revised: 06.02.2025

Accepted:07.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

Mazkur maqolada talabalarda axloqiy fazilatlarini san'at yordamida shakllantirish haqida ma'lumot berilgan. "Art-pedagogika", "art-terapiya" tushunchalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, san'atning shaxs rivijlanishi ta'siri va amalga oshiriladigan darajadalar yoritib berilgan.

Mazkur maqolada talabalarda axloqiy fazilatlarini san'at yordamida shakllantirish haqida ma'lumot berilgan. "Art-pedagogika", "art-terapiya" tushunchalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, san'atning shaxs rivijlanishi ta'siri va amalga oshiriladigan darajadalar yoritib berilgan.

KIRISH. Ma'lumki, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoning samarali tashkil etilishi, shaxs rivojlanishi masalalari kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu vazifani hal etish hozirgi davr o'qituvchisini

o'z fani doirasida chuqur va keng bilimli, shuningdek, ijodkor va izlanuvchan bo'lishini talab qiladi. Shu maqsadda pedagogika yo'nalishlaridagi oliy ta'lim tashkilotlarida, xususan "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishida "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" fani o'qitiladi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarni boshlang'ich sinflardagi «Tasviriy san'at» darslarini o'qitishga tayyorlash, tabiatdagi hamda tasviriy san'at asarlaridagi go'zallikni ko'ra bilish va idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasi, rangni sezish, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va badiiy ijodiy qobiliyatlarini o'stirishdan iborat.

San'at va madaniyatning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa va tasviriy san'atning insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar.

Boshlang'ich sinflarda, ya'ni kichik maktab yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda san'at va madaniyatning o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "San'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak"¹⁸ degan fikrlari ham yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi.

Ajdodlarimiz ham san'at va madaniyatning tarbiyaviy kuchiga alohida e'tibor qaratgan. Kichik maktab yoshdagi bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash ta'limning sifati, samaradorligi butkul o'zgartirib, tarbiyachidan esa o'z kasbini sevishiga, pedagogik mahoratiga, izlanuvchanligiga, fidoiyligiga, o'z mas'uliyatini qay darajada his etishiga bog'liq. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy musiqa va tasviriy san'at orqali yoshlardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdan iboratdir. Musiqa va tasviriy san'at madaniyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyatini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarni tarbiyalash borasida g'amxurlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak.

San'atning tarbiyaviy ta'siri ijtimoiy-psixologik darajada amalga oshiriladi. Ko'pincha "art-pedagogika" tushunchasi "art-terapiya" atamasi bilan birgalikda ishlatiladi. Biroq, "art-pedagogika" tushunchasini "art-terapiya" tushunchasi bilan solishtirganda shuni e'tirof etish

¹⁸ Prezident Shavkat Mirziyoyev Shahrisabzda Xalqaro maqom san'ati anjumani ochilishida ishtirok etib, so'zlagan nutqi. 07.09.2018 yil.

mumkinki, “art-pedagogika” atamasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu ikki tushuncha bir-biriga bog‘liq tushunchalar bo‘lsada, biroq ular sinonim emas. L.D.Lebedevaning fikricha, “art-terapiya atamasini art-pedagogika bilan almashtirganda, asl tushunchaning mohiyati yo‘qoladi”.¹⁹

J.S.Valeyeva, L.D.Lebedeva, I.Yu.Levchenko, Ye.A.Medvedeva, S.V.Starikovalar tadqiqotlarida “art-pedagogika” va “art-terapiya” tushunchalarini qiyosiy tahlilini qilishgan bo‘lib, ular ushbu tushunchalar bo‘yicha quyidagi xulosani chiqarishgan: ularning semantik va amaliy mazmunida umumiylik va xususiylik mavjud bo‘ladi. Bunda insonlarning badiiy-ijodiy faoliyati umumiy, san‘atga bo‘lgan munosabatidagi “erkinlik”, ishlatiladigan asboblari va san‘at turlarining shaxsga ijobiy ta‘siri xususiy sanaladi.

Musiqqa, tasviriy san‘at o‘rgatish metodikasi birdaniga kelib, shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Respublikamizda tasviriy san‘atni o‘rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o‘quv qo‘llanmalarining ahamiyati juda katta o‘rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so‘nggi yutuqlari ko‘rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ulami metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, o‘qitish san‘atini egallashga yordam berishni o‘ziga asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

San‘atning shaxsga ta‘siri asosan uch darajada amalga oshiriladi:

- birinchi daraja, tananing fiziologik va biologik o‘zgarishi orqali sodir bo‘ladigan psixofiziologik, vizual(ko‘rgazmali), eshitish va boshqa retseptorlarning faollashishi, ya‘ni psixofiziologik ta‘sir hisoblanadi (B.G.Ananyev, V.A.Ganzen, A.L.Gotsdiner, V.N.Myasimiyev, V.I Petrushin, D.N.Uznadze va b.);
- ikkinchi daraja, san‘atning hissiy-irodaviy tuzilmasiga ta‘sir etish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, ya‘ni, tanani ruhiy bo‘sh qo‘yish yoki aksincha ruhiy faollashtirishga qulay yengillik (A.V.Zaporojes, A.N.Leontyev, P.M.Yakobson va b.);
- uchinchi daraja, ijtimoiy-psixologik, bunda san‘at shaxsga ta‘sir qilib, unda katartik reaksiyaga sabab bo‘ladi, o‘z navbatida shaxsni o‘zgartiradi va uyg‘unlashtiradi,

¹⁹ Лебедева Л.Д. Педагогические основы арттерапии в образовании: дис. ... докт. пед. наук/ Л.Д. Лебедева – СПб. 2003.

ekzistensial shaxs tuzilmalarini shakllantiradi (L.V.Vigotskiy, T.A.Florenskaya va boshqalar).²⁰

O'qituvchi tasviriy san'at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi hisoblanadi. O'quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga dastur asosida o'qitiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlari narsaning asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish; dekorativ amaliy san'at va haykaltaroshlik; san'atni idrok qilish kabi turiarda olib boriladi. Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamonaviy sharoitda takomillashib boradi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda, tasviriy san'at o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahoratni talab qilinadi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarning ishlarida kuzatilayotgan xatolarni tahlil qilib borish va ularga mos metodik yo'nalish hamda yordam berib borish tasviriy san'at ta'limining barcha sohalari (faoliyat turlari) bo'yicha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuningdek, kamchiliklarning faoliyat turlari, janrlar bo'yicha klassifikatsiyalab borish mavjud kamchiliklarni batratarf etishga yo'naltirilgan metodikani to'g'ri tanlash imkonini beradi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda yangi, zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: siklografiya – harakat kinematikasini qayd qilish, okulografiya – ko'z harakatlarini qayd qilish, multiplikatsiyalashgrafik – tasvirlarni bajarish ketma-ketligini qayd qilish kabilar kiradi.

Albatta, tasviriy san'at darslari yanada sifatli va samarali bo'lishida multimedia texnologiyalarining ham o'rni katta. Multimedia vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) –

²⁰ Л.С.Выготский. Психология искусства. - М, 1986.

bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia – gurrirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Tasviriy san'atni o'qitishda, o'quvchilar bilan tegishli joylarga sayohat qilish, video va rasmlarni tomosha qilishda bolalar ushbu vizual tushunchalarni saqlab qolishlari va ularni yaratish va tasavvur qilish uchun birlashtira oladilar.

O'qituvchi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni dars mavzusiga faollashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirishi zarur. Ba'zida o'qituvchilar tasviriy san'at darslarini tashkil etish uchun o'quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to'ldirish kabi vositalardan foydalaniladi. O'quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko'nikmaga ega bo'ladilar, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag'batlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatish, ularni o'z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qilishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mana shunday tarzda o'qituvchilar o'quvchilarga san'atni o'tgatishda ko'plab uslub va metodlardan foydalanib kelmoqdalar. Bunday dars jarayonlari o'quvchilarni yana ham ilg'or bo'lishga, ular orqali san'atni yoshlar orasida keng targ'ib qilib, san'atimizni jahonga tanitishadi. Ta'lim oluvchilarning tarbiyasidagi san'at esa, ularni tarbiyasida rivojlantirilgan estetik bilimlar, ta'lim oluvchilarning kelajak tarbiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularni kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishida muhim omillardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Shahrisabzda "Xalqaro maqom san'ati anjumani" ochilishidagi nutqi. 07.09.2018 yil.
2. Виготский Л.С. Психология искусства. - М, 1986.
3. Лебедева Л.Д. Педагогические основы арттерапии в образовании: дис. ... докт. пед. наук/ Л.Д. Лебедева – СПб. 2003.